



Science technology & Digital finance

journal homepage: <https://supportresult.uz/index.php/stdf>

ECONOMIC CONSIDERATIONS IN ANCIENT CHINA

¹Kamolov Dostonbek Rustam ogli, ²Ropiyeva Feroza Bekzod qizi¹Scientific leader, teacher of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan.²Student of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan.

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЫСЛИ В ДРЕВНЕМ КИТАЕ

¹Камалов Достонбек Рустам оглы, ²Ропиева Фероза Бекзод кызы¹Научный руководитель, преподаватель Джизакского филиала Национального университета Узбекистана.²Студент Джизакского филиала Национального университета Узбекистана.

QADIMGI XITOYDAGI IQTISODIY FIKRLAR

¹Kamolov Dostonbek Rustam o'g'li, ²Ropiyeva Feroza Bekzod qizi¹Ilmiy rahbar, O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali o'qituvchisi.²O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali talabasi.

abstract

This article covers extensively what ideas and propaganda were carried out in ancient China, the propaganda and content of the economic ideas of Confucius, the legists, Syun-Szi, Guan-szi, and how they were applied to the government.

аннотация

В этой статье будет подробно освещено, какие идеи и пропаганда проводились в Древнем Китае, пропаганда и содержание экономических идей Конфуция, легистов, Сюнь-си, Гуань-Си, как они применялись к правительству.

annotatsiya

Bu maqolada Qadimgi Xitoyda qanday g'oyalari va targ'ibotlar olib borilganligi, Konfutsiy, legistlar, Syun-Szi, Guan-Szining iqtisodiy g'oyalari targ'iboti

va mazmuni, hukumatga qanday tatbiq etilganligi haqida keng yoritilib o'tiladi.

Keywords:

Confucius, legists, Syun-Szi, Guan-Szi, Taoism, law, doctrine, division of Labor, stratification.

Ключевые слова:

Конфуций, легисты, Сюнь-Си, Гуань-Си, даосизм, закон, учение, разделение труда, стратификация.

Kalit so'zlar:

Konfutsiy, legistlar, Syun-Szi, Guan-Szi, daosizm, qonun, ta'limot, mehnat taqsimoti, tabaqalanish.

©2023. Kamolov Dostonbek Rustam ogli,
Ropiyeva Feroza Bekzod qizi.

Kirish

Iqtisodiy fan manbalarini avvalo jahon sivilizatsiyasining beshigi bo'lgan qadimgi Sharqdan izlamoq mantiqan to'g'ridir. Iqtisodiy g'oyalarning shakllanishi

insoniyatning paydo bo'lishi bilan boshlangan. Ammo, hozirgi paytda qo'lyozmalarda aks ettirilgan g'oyalargina tahlil qilingan. Shu sababli iqtisodiy ta'limotlar tarixi quldorlik jamiyati, aniqrog'i, xususiy mulk paydo bo'lishi bilan boshlanadi, deyish o'rinlidir.

Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalar m.a. VI-III asrlarda shakllangan. Bu mamlakatdagi dastlabki quldorlik davlatlari eramizdan avvalgi II ming yillikda paydo bo'lgan. Bu g'oyalar Xitoydagi muhim iqtisodiy o'zgarishlar davriga to'g'ri keladi.

Xitoyliklar uchun yetarlicha ta'minot tamoyili insonning jamiyatdagi o'rniga bog'liq holda belgilangan (ya'ni sinfiylik tamoyili mavjud). Ekspluatatsiya qo'llab quvvatlanadi, jamiyatda hammaning o'z aniq joyi bo'lishi kerak, deyilgan, ya'ni hukmdor, tobe', ota, o'g'il. Boshqarish ma'lum qonun asosida emas, balki oddiy odat bo'yicha bo'lishi, og'ir soliq va majburiyatlar bo'lmasligi ta'kidlanadi.

Qadimgi Xitoy falsafasida turli xil yo'nalish va oqimlar mavjud bo'lib, Ularda falsafiy tafakkur qadriyatlarini ishlab chiqishga uringan mashhur kishilar, oz davrining ko'zga koringan donishmandlari tabiat, jamiyat va inson hayotiga taalluqli bolgan kopgina muammolarning real yechimini izlaganlar. Shunday qilib, Konfutsiylar, legistlar va bir qancha olimlar Xitoyning iqtisodiyotiga bog'liq holatda, ya'ni resurslariga, boyliklariga bog'liq holatda bir qancha g'oyalarni ilgari surishadi va aholi o'rtasida targ'ib qilishadi.

Demak, Patriarxal munosabatlarni reglamentlashtirish davlat tuzumini mustahkamlashga xizmat qiladi. Davlat-bu katta oila, podsho esa "xalqlarning otasi" deyiladi. "Buyuk jamoa mulki" (dehqonlar jamoasi mulki) va xususiy egalik (quldorlar mulki) ajratib ko'rsatiladi va xususiy mulk ustunligi ko'rsatib beriladi. Aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat to'g'risida fikr yuritiladi va aqliy mehnat bilan yuqori tabaqali kishilar, jismoniy mehnat bilan esa oddiy kishilar shug'ullanishi kerak deb ko'rsatiladi. Mehnat taqsimoti to'g'risidagi fikrlar ilgari suriladi. Davlatning bahoni tartiblab turishi zarurligiga alohida e'tibor beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Qadimgi Xitoyda ilgari surilgan iqtisodiy g'oyalarni muhimligi shundaki, hozirgi Xitoy davlatini erishgan iqtisodiy yutuqlari uchun poydevor bo'lgan, ya'ni qadimda ilgari surilgan g'oyalarni mujassamlashtirib va albatta qilingan xatolarni qaytib qilmaslik bilan yutiqlarga erishishgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tarixi va ma'naviy merosini o'rganishga oid bergan uslubiy ko'rsatmalari hamda, "Qadimgi Xitoyda ilgari

surilgan iqtisodiy g'oyalarni o'rganishda olimlarning falsafiy tizimlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi to'g'risidagi fikr – mulohazalar, xulosalar, ilgari surilgan g'oyalar va prinsiplar tadqiqotning nazariy-uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Konfutsiyning iqtisodiy g'oyasi va mohiyati

Konfutsiylik g'oyasi muhimdir. Uning muallifi Konfutsiy yoki Kun-Szi (m.a. 551-478 yy.) “Lun yuy” to'plamida (“Suhbatlar va mulohazalar”) o'z g'oyalarini jamlagan. Olim kelajak rivojini o'tmishdan izlaydi. Shu davrda obro'si pasaygan zodagonlarning manfaatini himoya qiladi (bu g'oyalar keyinchalik Ken-Szi (m.a.312-289 yy.), Syun-Szi (313-278 yy.) va boshqalar tomonidan davom ettirilgan). Yoshlarning qariyalarga hurmati, ularga qarshi chiqmaslik g'oyasi asos qilib olingan. Davlat bu katta oila, podsho esa “xalqlar otasi”dir, boyliklar nisbatan tekis taqsimlanishi kerak, soliqlarni me'yorida saqlash, yer ishlarini yaxshi bajarish, hammani o'z vazifalarini bajonidil ato etishi zarur deyiladi.

Bu g'oyalar Xitoydagi muhim iqtisodiy o'zgarishlar davriga to'g'ri keladi. Temir qurollar tufayli dehqonchilik va hunarmandchilik rivoj topdi, tovar-pul munosabatlari o'sdi, savdo-sotiq kuchaydi. Sinfiy munosabatlar keskinlashdi. Shu sharoitda konfutsiylik ijtimoiy, axloq va huquq doirasida tabiiy huquq nazariyasini ilgari surdi. Mamlakatdagi aristokratiya va xalq o'rtasida vujudga kelgan quldorlik va xususiy mulk himoya qilinadi. Konfutsiy “buyuk jamoa Mulki” (dehqonlar jamoasi) va xususiy egalik (quldorlar mulki)ni farqlaydi, so'nggisini ko'proq qo'llaydi. Jamiyatning turli qatlamlari xudo tomonidan belgilanganligini ta'kidlaydi va uni tabiiy hol, deydi. Boylikning manbayi mehnat bo'lib, hokimlar boyligi xalq boyligiga asoslanadi. U xalq hisobiga quldorlar boyligi ortishi tarafdori edi, xalqni ko'proq ishlab, kamroq iste'mol qilishga chaqirdi.

Guan-Szi iqtisodiy g'oyasi

“Guan-Szi” (m.a. IV a.) asarida ham xo'jalikni davlat tomonidan tartibga solishning tizimlari ancha mukammal bayon etilgan. Bunda legistlardan farqli, tovar-pul munosabatlarini cheklashga intilmasdan, bu munosabatlarni o'rganib, undan xo'jalikni barqarorlashtirishda ma'lum mexanizm sifatida foydalanish taklif etiladi. Xalq xo'jaligini barqaror saqlash uchun tovarlar baholarini ushlab turish g'oyasi ilgari suriladi. Davlat hokimi non, pul, metallni tartibga solish yo'lini qo'lida saqlasa, mamlakat rivoji nisbatan tekis boradi, deyilgan. Bu asarda ham agrar soha, ayniqsa donchilikka alohida urg'u berilgan. Agar legistlar hunarmandchilik, ayniqsa savdoni befoida soha deb hisoblagan bo'lsalar, bu asarda esa o'sha sohalarga ham ijobiy baho berilgan. “Yerni boshqarish” uchun davlat yerning tabiiy xususiyatlarini yaxshi bilishi

kerak. Yer maydonlari nisbatan tekis taqsimlanishi zarur, dehqonlarni ish qizigan davrda boshqa yumushlarga jalb etmaslik, soliq tizimi sharoitiga qarab (yer unumiga bog'liq ravishda) bo'lishi taklif etilgan. Bu yerda gap Yer kadastrini tuzish to'g'risida boradi, ya'ni bu ishda hisob-kitob bo'lishi qayd etiladi. Asarda yer va suv (tog' va dengiz) larni davlat ixtiyoriga o'tkazish va ulardan daromad yo'lida foydalanish, baholarni tartibga solish yo'li va boshqa ko'p-gina iqtisodiy g'oyalar ilgari suriladi. Bu g'oyalar amalda ham qo'llanildi va yaxshi samara berdi.

Legistlar ta'limoti va uning mohiyati

Legalizm (fransuzcha: Légisme) 4-3-asrlarda shakllangan. Miloddan avvalgi «Advokatlar maktabi» sifatida ham tanilgan.

Ushbu maktabning asosiy g'oyasi hammaning qonun oldida tengligi, buning natijasida unvonlarni tug'ilish bo'yicha emas, balki haqiqiy xizmatga ko'ra taqsimlash g'oyasini ilgari suradi. Qonunchilik g'oyalariga ko'ra, har qanday oddiy odam birinchi vazirgacha bo'lgan har qanday martabaga ko'tarilish huquqiga ega edi. Legistlar hokimiyatga kelganlarida shafqatsiz qonunlar va jazolarni o'rnatganliklari bilan mashhur edilar.

Syun-Szi iqtisodiy g'oyasi

Syun-Szi davlatning iqtisodiy jihatdan kuchayishi tarafdori edi, odamlarning boylikka intilishini qoralamagan (ular qonun asosida ish yuritishsa bas). Ammo, inson bir vaqtning o'zida ko'p kasb egasi bo'la olmaydi, degan fikr paydo bo'ldi, ya'ni olim mehnat taqsimoti zarurligi g'oyasini ilgari suradi (bu juda muhimdir). Davlatning iqtisodiy siyosati uchta asosiy tamoyilga asoslanishi kerak:

1. Harajatlarni iqtisod qilish, ya'ni tejab-tergab sarflash;
2. Xalq to'qligini ta'minlash;
3. Ortiqcha mahsulotlarni saqlash zarurligi.

Yetarlicha ta'minot tamoyili insonning jamiyatdagi o'rniga bog'liq holda belgilangan (ya'ni sinfiylik tamoyili mavjud). Eksploatatsiya qo'llab quvvatlanadi, jamiyatda hammaning o'z aniq joyi bo'lishi kerak, deyilgan, ya'ni hukmdor, tobe', ota, o'g'il. Boshqarish ma'lum qonun asosida emas, balki oddiy odat bo'yicha bo'lishi, og'ir soliq va majburiyatlar bo'lmasligi ta'kidlanadi.

Daosizm

Qadimgi Xitoy ijtimoiy hayotida daosizm (aynan - yo'l) g'oyalari alohida o'rinni egallaydi, uning asoschisi Lao-Szi bo'lib, Konfutsiy davrida yashab, ijod etgan (e.a. IV-III asrlar). U taqiqlovchi qonunlarga amal qilmaslikni taklif etdi, qonunlar ko'pligi tufayli "xalq kambag'allashmoqda", degan edi u. Daosizm g'oyalari konfutsiylikka

qarama-qarshi bo'lib, insoniyat avvalgi majburiyatlaridan voz kechishi, oddiy tabiiy hayotga qaytishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Bu g'oyaga ko'ra inson ibtidoiy davrga qaytishi, yangi mehnat qurollaridan foydalanmasligi kerak. Ko'rinib turibdiki, unda reaksiyolik elementlari bor, ammo bu g'oyada xalq ommasining noroziligi ham aks etgan, chunki sivilizatsiya yutuqlari ekspluatatsiya manfaatlariga ham xizmat qilayotgan edi. Bunda kurashdan voz kechish, davlatning xalq hayotiga aralashuvini inkor etish fikrlari ustun kelgan.

Xulosa

Shunday qilib, Qadimgi Xitoyda iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi o'rtasida kambag'allikni kamaytirish, ya'ni tabaqalanishni oldini olish bo'lgan. Bizga ko'rinib turibdiki, qanday bo'lmasin davlatni va aholini boy qilish bosh masala bo'lgan. Masalan, daosizm tarafdorlari davlatni va aholini boyitishni eski usulini targ'ib qilishgan, ya'ni usullardan foyda yo'qligini ta'kidlaganlar. Qadimgi Xitoyda ilgari surilgan ba'zi g'oyalarni bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmaganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni Qadimgi Xitoyda iqtisodiyotni bosh masala sifatida qaralganligiga guvoh bo'lamiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Norkuziyev A. R. Theoretical Analysis Of Role Infrastructure On The Development Smes In Uzbekistan //International Conference Dedicated To The Role And Importance Of Innovative Education In The 21st Century. – 2022. – T. 1. – №. 9. – C. 131-135.
2. Наркузиев А. Р. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ КАК ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В СФЕРЕ ПРОИЗВОДСТВА //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 11-14.
3. Rustamovich N. A. ROLE OF INFRASTRUCTURE TO DEVELOP SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES IN UZBEKISTAN //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 412-416.
4. Норқўзиєв А. ҲУДУДЛАРНИНГ ЛОГИСТИК ИНФРАТУЗИЛМА САЛОҲИЯТИ ТАҲЛИЛИ //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 419-423.
5. Норқўзиєв А. Р. ИҚТИСОДИЙ КАТЕГОРИЯ СИФАТИДА ИНФРАТУЗИЛМА ТУШУНЧАСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ СОҲАСИДАГИ АҲАМИЯТИ //Academic research in educational sciences. – 2022. – №. Conference. – С. 157-161.
6. Narkuziyev Anvar Rustamovich. (2023). KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA XITOY VA TURKIYA MAMLAKATLARI TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 9(1), 176–182. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/1319>
7. Narkuziyev Anvar Rustamovich, & Kenjayev Xajimurod Odil o'g'li. (2023). O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA XITOY VA TURKIYA MAMLAKATLARIDAGI OLINGAN TAJRIBALARDAN INNOVATION USULDA FOYDALANISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 9(2), 3–11. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/1321>

8. Narkuziyev, A., & Norbekova, M. (2023). IMPROVING THE USE OF INFRASTRUCTURE ACTIVITIES IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP. *Science technology&Digital Finance*, 1(3), 171-186. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/nanm>
9. Rustamovich N. A. O 'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ICHKI RESURSLARGA ASOSLANGAN HUDUDIY INFRATUZILMASIDAN FOYDALANISH IMKOMIYATLARI VA MAMLAKATIMIZDA INNAVATSION USULDA FOYDALANISH //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 17. – C. 104-115.
10. Anvar Rustamovich Narkuziyev ICHKI RESURSLARGA ASOSLANGAN HUDUDIY INFRATUZILMANI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO„LLASH (O„ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SOHASI UCHUN FOYDALANISH IMKOMIYATLARI) // Academic research in educational sciences. 2022. №TSTU Conference 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ichki-resurslarga-asoslangan-hududiy-infratuzilmani-takomillashtirishning-xorij-tajribasini-qo-llash-o-zbekistonda-kichik-biznes-va> (дата обращения: 24.11.2023).
11. Rustamovich N. A. SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES IN DEVELOPMENT INTERNAL TO RESOURCES BASED ON TERRITORIAL INFRASTRUCTURE IMPROVEMENT //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – T. 25. – C. 47.
12. Kamolov D. R. O. G. L. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIYA VA AXLOQNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. NUU Conference 2. – C. 348-352.
13. Kamolov Dostonbek, “SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT OF SOCIETY”, *SSAI*, vol. 1, no. 2, pp. 128–133, Oct. 2023, Accessed: Nov. 24, 2023. [Online]. Available: <https://supportresult.uz/index.php/ssai/article/view/89>
14. Kamolov D. Davlat boshqaruviga oid axloqiy qarashlar //Адабиёт учкунлари. – 2021.
15. Камолов Д. Spiritual and moral environment of society //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 278-282.
16. Spanov M., Kamolov D. MODERN PROBLEMS AND SOLUTIONS OF DEMOCRACY AND MORALITY IN UZBEKISTAN. *Science technology&Digital Finance*, 1 (4), 168-172. – 2023.
17. Kamolov, D., & Karimqulova, O. (2023). ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF INTERNATIONAL ECONOMIC ORGANIZATIONS. *Science technology&Digital Finance*, 1(4), 199-202. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/kdko>
18. Rustamovich N. A. ROLE OF INFRASTRUCTURE TO DEVELOP SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES IN UZBEKISTAN //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 9. – C. 412-416.
19. Kamolov, D., & Kilicheva, R. (2023). CONFUCIAN AND LEGIST DOCTRINE. *Science technology&Digital Finance*, 1(4), 187-192. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/drrkk>
20. Kamolov D. JAMIYATNING MA'NAVIY-AXLOQIY MUHITI //Social science and innovation. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 78-82.
21. Spanov M., Kamolov D. MODERN PROBLEMS AND SOLUTIONS OF DEMOCRACY AND MORALITY IN UZBEKISTAN //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 168-172.